

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

BABAJANOVA ZABARJAD TURSUNBAYEVNA

**O‘ZBEKISTONDA MADANIY MUHITNING SHAKLLANISHIDA
ART-JURNALISTIKANING O‘RNI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 050/070:792:820.512.133(575.1)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Babajanova Zabarjad Tursunbayevna O‘zbekistonda madaniy muhitning shakllanishida art- jurnalistikaning o‘rni.....	3
Бабажанова Забаржад Турсунбаевна Роль арт-журналистики в формировании культурной среды Узбекистана.....	23
Babajanova Zabarjad Tursunbayevna The role of art journalism in the formation of the cultural environment in Uzbekistan.....	45
Эълон қилинган ишлар рўйхати Список опубликованных работ List of published works	50

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**BABAJANOVA ZABARJAD TURSUNBAYEVNA
O‘ZBEKISTONDA MADANIY MUHITNING SHAKLLANISHIDA
ART-JURNALISTIKANING O‘RNI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2674 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilg

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzjoku.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tashpulatova Nazira Kurbanovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Amrullo Ashurovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirsoatova Mahliyo Sobirovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

Sherzodxon Qudratxo'ja
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, s.f.d.(DSc), professor

Alijon Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.f.f.d.(PhD), dotsent

Nozima Muratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tamaddunida san'atning o'rnini beqiyos: u azaliy qadriyatlar, borliqni badiiy vositalar orqali idrok etish, did va tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq bahs-munozaralar, dolzarb masalalarni o'rta tashlaydi. Globallashtirish davrida avj olayotgan jamiyatlar transformatsiyasi, globalizatsiya, madaniy marginallashtirish, axboriy intoksikatsiya jarayonlari aynan san'atning va bu orqali yuksak estetik did, yuqori madaniyatning targ'ibotini taqozo qilmoqda. Xususan, xalqning dunyoqarashi, axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyati, ijtimoiy va ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan jurnalistika, aniqrog'i, san'atga ixtisoslashgan matbuotning ahamiyati oshmoqda. Bunda art-jurnalistika yo'nalishidagi materiallarni o'rganish, tahlil qilish va ularning auditoriya madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy asoslash dolzarblik kasb etadi.

Dunyoda art-jurnalistika media-biznesning alohida tarmog'i sifatida qaralib, madaniy jurnalistikaning institutsional asoslari, san'at va axborot sohasining o'zaro kross-kommunikatsion ta'siri, san'atga oid kontentni veb-iste'molchilar uchun tayyorlash va taqdim etish usul va yondashuvlari, SI imkoniyatlaridan foydalanish masalalari tadqiq etilmoqda. San'at asarlari nafaqat ma'naviy, ma'rifiy qadriyat, balki iqtisodiy resurs sifatida ham o'z o'rnini mustahkamlab borayotgani bilan bog'liq ravishda art-jurnalistika san'at va madaniyatni targ'ib va tahlil qiluvchi, ijodkorni auditoriya (iste'molchi) bilan bog'lovchi asosiy vositalardan biriga aylanayotgani e'tirof etilmoqda. San'at jurnalistlaridan faqat matnli axborot bilan cheklanib qolmay, uni yoritishda yangi usullar: video, audio, interaktiv formatlarda taqdim etish talab qilinmoqda. Bu o'rinda san'atga ixtisoslashgan nashrlarning yashovchanligini oshirish, art-jurnalistikasining axboriy, ko'ngilochar, reklama xususiyatlarini uning madaniy-ma'rifiy funksiyasi bilan uyg'unlashtirish, tobora kengayib borayotgan, talablari va san'atdan xabardorlik darajasi turlicha bo'lgan auditoriya bilan ishlash masalalari jiddiy e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan ilmiy muammolardandir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda san'at va madaniyatga ijtimoiy islohotlarning bosh mezoni sifatida qaralmoqda. "Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim"¹. Zamonaviy media san'at va madaniyat sohasidagi ishlarni xolis va haqqoniy baholash, tanqidiy va tahliliy materiallarni e'lon qilish, ijodiy tashkilotlar faoliyatini yoritish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, Matbuot nafaqat voqelikni aks ettiruvchi, balki san'at sohasidagi ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochish uchun ijtimoiy nazorat vositasidir. Publitsistik tanqid ijodiy jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi va jamiyatda madaniy muhitni yanada jonlantiradi. Shu nuqtayi nazardan san'atning keng auditoriyaga ega

¹ Президент маданият ва санъат соҳаси раҳбарлари билан йиғилиш ўтказди. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/1378> (murojaat sanasi: 22.07.2024).

turlaridan bo‘lgan – teatr, kinematografiya, tasviriy san’atga ixtisoslashgan jurnallar faoliyati va ularda san’at mavzularining yoritilishini tadqiq etish, san’atga ixtisoslashgan davriy nashrlarni qiyosiy o‘rganish, san’at sohasini yoritishda jurnalistika janrlari imkoniyatlarini aniqlash, milliy mass-mediada tizimida art-jurnalistikani rivojlantirish hamda milliy kontentdagi o‘rnini oshirish bilan bog‘liq aniq ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 14-avgustdagi PQ-3201-son “Madaniyat va san’at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Matbuotda madaniyat, san’at mavzularining paydo bo‘lishi tarixi, shakllanish bosqichlari borasida olim va tadqiqotchilarimiz B. Do‘stqorayev, N. Abduazizova, M. Xudoyqulov, N. Toshpo‘latova, B. Irzayev, Sh. Rizayev, I. Rahmatullayeva, F. Fayziyeva²ning qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida aks etgan. San’at mavzularining nazariy asoslari bo‘yicha H. Akbarov, M. Mirsoatova, H. Hamroyeva, K. Sagdullayevlar³ yaxlit

² Dўstqorayev B. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 380 б.; Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002. – 192 б.; Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент: Университет, 2008. – 236 б.; Тошпўлатова Н. Истиқлол даври матбуотида ўзбек адабиёти муаммоларининг ёритилиши: фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005; Ирзаев Б. Ўзбек мусиқа маданияти тарихи саҳифаларидан. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 160 б.; Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1997. – 316 б.; Акбаров Х. Абдулла Қодирий ва санойи нафиса. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – 304 б.; Мирсоатова М. Малик Қаюмов ижоди ва кинопублицистикада маҳорат масалалари: фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Раҳматуллаева И. Ўзбекистон телевидениесида ёшлар кўрсатувлари (Бадий маҳорат муаммолари): фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 165 б.; Файзиева Ф. Ўзбекистон бадий телевидениесининг шаклланиши (1956-2000 йиллар): фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 160 б.

³ Сағдуллаев К.К. Театр ва оммавий ахборот воситалари коммуникатив тизим сифатида: фил. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2018. – 147 б.;

tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlarida san'at jurnalistikasining nazariy asoslari bo'yicha G. S. Lapshina, N. S. Svetova, D. A. Vasilyev, A. V. Pilyuk, Y. P. Proxorov, T. S. Sergeeva, B. Dubin, V. Y. Borev, A. V. Kovalenko (Rossiya), Y. V. Gorlova⁴, L. P. Sayenkova, N. A. Tochitskaya (Belorusiya)⁵, Chjao Yuanyuan (Xitoy)⁶ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. A. A. Musinova⁷ning "Qozog'iston art-jurnalistikasi" o'quv qo'llanmasi milliy jurnalistikadagi dastlabki madaniyat va san'atga ixtisoslashgan nashrlar tipologiyasini o'rgangani Turkiston matbuoti, shuningdek, o'zbek matbuotida ham san'at mavzularining paydo bo'lishiga oid tahlillari bilan ahamiyatli.

Zamonaviy san'at jurnalistikasi talqini bo'yicha xorijlik mutaxassis va tadqiqotchilar Susanne Janssen, Bob Abelman, Cheryl Kushner, Alfredo Cramerotti, S. Postema, Deuze M., Ceyda Ilgaz Büyükbaykal, L. Strahan, J. Elsom, G. Harries, K. Wahl-Jorgensen⁸, asarlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.

Mazkur xorijiy tadqiqotlar san'at jurnalistikasi amaliyotida shakllangan tendensiyalarni tahlil qilish, mediamakonda art-jurnalistikaning rivojlanish bosqichlari, san'at sohasida kechayotgan jarayonlar, voqeliklarda art-jurnalistlar faoliyati hamda ulardagi o'ziga xosliklar o'rganilganiga qaramay, O'zbekistonda san'at jurnalistikasi ilmiy-nazariy asoslari, mustaqillik davri o'zbek art-jurnalistikasi va san'at mavzularining OAVda yoritilishi masalalari maxsus tadqiq

⁴ Лапшина Г. С. Искусство глазами журналиста. – Москва: Ф-т журн. МГУ, 2015. – 346 с.; Цветова Н. С. Искусство в массмедиа: учебное пособие. – Санкт-Петербург: изд-во ВВМ, 2019. – 90 с.; Васильев Д. А. Современное состояние и перспективы развития журналов о кино: дисс. ... канд. фил. наук. – Москва, 2006. – 148 с.; Пилук А. В. Арт-рынок и средства массовой информации в России: проблемы взаимодействия: дисс. ... канд. фил. наук. – Москва, 2005. – 135 с.; Прохоров Е. П. Введение в теорию журналистики: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности «Журналистика». – Москва: Аспект-пресс, 2011. – 351 с.; Сергеева Т. С. Арт-журналистика и современная российская культура: ценностно-смысловые доминанты и проблема сохранения человека // Вестник Челябинского государственного университета. – 2013. – № 22(313). – С. 152–156; Дубин Б. Журнальная культура постсоветской эпохи. – Москва: Новое литературное обозрение, 2001. – 136 с.; Боров В. Ю., Коваленко А. В. Культура и массовая коммуникация. – Москва: Наука, 1986. – 304 с.; Горлова Е. В. Типологические особенности итальянских журналов об изобразительном искусстве. – URL: <http://www.mediascope.ru/2451> (murojaat sanasi: 22.02.2025).

⁵ Саенкова Л. П. Литературно-художественная критика и журналистика: историко-культурный контекст / Вестник БДУ. Серия 4. – 2009. – №1. – С. 87–92; Саенкова Л. П. Кинокритика и киножурналистика: типология творческой деятельности // Веснік БДУ. Серыя 4, Філалогія. Журналістыка. Педагагіка. – Мінск: БДУ. – 2013. – №1. – С. 71-74; Точицкая Н. А. Литературно-художественная критика и арт-журналистика: сходства и различия в понятиях // Белорусская журналистика – 2017: материалы 74-й науч.-практ. конф. студентов и аспирантов / редкол.: С. В. Дубовик (отв. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2017. – С. 49-52.

⁶ Чжао Юаньюань. Арт журналистика Китая: генезис и тенденции развития (на материалах журнальной периодики): дисс. ... канд. фил. наук. – Санкт-Петербург, 2021. – 162 с.

⁷ Мусинова А. А. Арт журналистика Казахстана: учебное пособие. – Алматы: Қазақ университеті, 2018. – 230 с.

⁸ Janssen S. Art journalism and cultural change: The coverage of the arts in Dutch newspapers 1965–1990 // [Poetics](#). – 1999, August. – [Volume 26, Issues 5–6](#). – P. 329-348; Abelman B., Kushner Ch. A Theater Criticism/Arts Journalism Primer: Refereeing the Muses. – Peter Lang Inc., International Academic Publishers, 2013. – 272 p.; Cramerotti A. Aesthetic Journalism. – GBP, 2009. – 136 p.; Postema S., Deuze M. Artistic Journalism: Confluence in Forms, Values and Practices // [Journalism Studies](#). – 2020. – 21(10). – P. 1305–1322. – URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/-10.1080/1461670X.2020.1-745666#abstract> (murojaat sanasi: 04.08.2023); Büyükbaykal C.I. Importance of Culture and Art Journalism Education Today // [Journalism and Mass Communication](#). – 2016, October. – Vol. 6, No. 10. – P. 575-584; Strahan L. Sources of arts journalism: Who's writing the arts pages? // [Journalists, Sources and Credibility. New Perspectives](#) / Edited by Bob Franklin and Matt Carlson. – New York, London: Routledge, 2011. – P. 127-136; Elsom J. Post-war British theatre criticism. – London: Routledge & Kegan Paul, 1981. – 270 p.; Harries G., Wahl-Jorgensen K. The culture of arts journalists: Elitists, saviors or manic depressives? // [Journalism](#). – 2007. – 8(6). – P. 619-639.

etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekistonda art (san'at) jurnalistikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, milliy media makondagi o'rni va ahamiyatini san'at turlariga ixtisoslashgan jurnallar orqali tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

art-jurnalistika tushunchasiga ta'rif berish, san'at turlari bilan bog'liq jurnalistikaning shakllanishi tarixiy aspektlarini o'rganish va O'zbekistondagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etish;

art-jurnalistikaning san'at, madaniyat va badiiy tanqidchilikdan farqli jihatlarini belgilash;

san'at sohasiga ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari faoliyat turlarini tasniflash, san'at jurnallari rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, art-maqolalarning janr xususiyatlarini yoritish;

O'zbekiston art-jurnalistikasida yuzaga kelgan muammolar va ularning sabablari aniqlash, milliy art-jurnalistika istiqbollari o'rganish.

Tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy o'zbek matbuotining "San'at", "Teatr", "Ma'naviy hayot" singari ixtisoslashgan jurnallar (2015-2024-yillar) faoliyati olingan. Shuningdek, milliy art-jurnalistikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan, biroq bugungi kunda faoliyati to'xtagan "Kino", "Kino san'ati", "Cinema magazine" hamda "Jannatmakon" kabi jurnallar tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning predmetini ixtisoslashgan jurnallarda san'atga oid materiallarni tayyorlash, uzatish usullari, o'ziga xos qoidalari, samaradorligini ta'minlash mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari tarixiy-qiyosiy, jurnalistik kuzatuv, kontekstual tahlil, statistik tahlil singari metodlardan iborat bo'lib, ular xronologik va tizimlilik tamoyiliga asoslangan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"san'at jurnalistikasi", "madaniy jurnalistika", "art-jurnalistika", "arts-jurnalistika", "ko'ngilochar jurnalistika", "badiiy jurnalistika" atamalarini funksional, konseptual va semantik differentsiyalash natijasida art-jurnalistikaning auditoriya iste'molchilik didini shakllantirish, jamoatchilik va davlat siyosatini bog'lashda namoyon bo'luvchi integrativ ahamiyati dalillangan;

art-jurnalistika vazifalari hamda metodologik yondashuvlariga ko'ra san'atshunoslik va badiiy tanqidchilikdan farqlanishi, xususan, madaniy hodisani axboriy verifikatsiya tamoyili asosida operativ yoritishi qiyosiy-diskursiv tahlil asosida isbotlangan;

art-nashrlarning inqiroz vaziyatidan chiqish strategiyalarini tizimli o'rganish natijasida ommaviy retsepsiyaga mos bo'lmagan, ekspert auditoriya uchun mo'ljallangan kontent – san'atshunoslik maqolasi yuzaga kelgani aniqlangan;

san'atga ixtisoslashgan jurnallar faoliyati dinamikasini ta'minlashda raqamli transformatsiyani joriy qilish, distributsiya hududini kengaytirish, nashrlarning kuchli brendini yaratish hamda zamonaviy mediabozorga moslashishni o'z ichiga oluvchi innovatsion boshqaruv konsepsiyasi samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

art-jurnalistikaning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar tahlil qilingan;

art-jurnalistlar faoliyati va uslubidagi o'ziga xos xususiyatlar o'rganilib, nashrlar kesimidagi farqli yondashuvlar ochib berilgan;

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bosma matbuot yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun "San'at jurnalistikasi" hamda "Art-jurnalistika" fanlari o'quv dasturiga kiritilgan, fan bo'yicha fan dasturi va ishchi dasturlar ishlab chiqilgan, ma'ruza matnlari, taqdimot va videomateriallar tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorij va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, ilmiy-nazariy konferensiyalarda o'qilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va monografiyalar, tadqiqot obyekti va predmetiga tizimli ilmiy yondashuv va istifoda etilgan metodologiyaning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, dalil, tahlil va xulosalarning dastlabki va ishonchli manbalarga tayangani, nazariy qarash, yechim va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston madaniy muhitining shakllanishida san'at jurnalistikasining o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish, jahon art-jurnalistikasida kechayotgan o'zgarishlar, tendensiyalar, tamoyillarni aniqlash, san'at nashrlarining tipologiyasini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratilishi, shuningdek, san'atga ixtisoslashgan davriy nashrlar faoliyatiga ko'maklashishi, milliy matbuot rivojiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda madaniy muhitning shakllanishida art-jurnalistikaning o'rnini o'rganish yuzasidan ishlab chiqilgan xulosa va amaliy takliflar asosida:

san'at va madaniyat sohasiga ixtisoslashuv masalasida "san'at jurnalistikasi", "madaniy jurnalistika", "art-jurnalistika", "arts-jurnalistika", "ko'ngilochar jurnalistika", "badiiy jurnalistika" singari tushunchalarni qo'llash qamrovi va chegaralari, mezon va vazifalari nuqtayi nazaridan farqlari, jamiyat madaniy muhiti shakllanishida art-jurnalistikaning o'rni va ahamiyati to'g'risidagi ilmiy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston jurnalistlar uyushmasida madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi OAVni qo'llab-quvvatlash, jurnalistlarga ijodiy sharoit yaratish, ixtisoslashgan nashrlar faoliyatini baholash va qayta ko'rib chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasining 2025-yil 13-maydagi 02-18/136-son ma'lumotnomasi). Natijada OAVdagi san'at mavzulari qamrovini oshirish, art-jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ijodiy

raqobat muhitini shakllantirishda samaradorlikka erishilgan. Shuningdek, tadqiqot jurnalistlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ommaviy axborot vositalari uchun tavsiyalar ishlab chiqishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan;

art-jurnalistika madaniy hodisani baholamasligi, balki uni qamrab olib, u haqida eng to'liq ma'lumotlarni taqdim etishi va shu jihati bilan madaniyat, san'atshunoslik va badiiy tanqidchilikdan farq qilishi to'g'risidagi ilmiy-nazariy xulosalar "Ma'naviy hayot" jurnalida materiallarni baholash va qayta ishlash jarayoniga tatbiq etilgan ("Ma'naviy hayot" jurnalining 2025-yil 7-maydagi 002/12-son dalolatnomasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 12-maydagi 5/121-151-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot jurnalda chop etilayotgan san'at mavzusiga bag'ishlangan materiallarni saralash jarayoniga yangicha yondashuvni ta'minlash, maqolalarning publitsistik jihatini kuchaytirish, tahliliy kontentni o'quvchi uchun kerakli va qiziqarli matnga aylantirish, shuningdek, jozibadorligini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

san'at sohasiga ixtisoslashgan bosma nashrlarning moliyaviy inqiroz vaziyatidan chiqish yo'li sifatida mutaxassis-o'quvchilarga mo'ljallangan kontent ishlab chiqilgani, natijada maqolaning alohida turi sifatida san'atshunoslik maqolasi yuzaga kelgani to'g'risidagi fikr-mulohazalardan "Teatr" jurnalida materiallarni tayyorlash va qayta ishlash jarayonida foydalanilgan ("Teatr" jurnalining 2025-yil 5-maydagi 50-son dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 13-maydagi 02-11-08-1624-son ma'lumotnomasi). Natijada jurnalda nazariy tahlillar, sohaga oid atamalar minimal darajaga tushirilib, nashr kontenti keng auditoriyani qamrab olishi, uslubiy yondashuv prinsiplarini yanada takomillashtirishda samaradorlikka erishilgan;

san'atga ixtisoslashgan jurnallar faoliyatidagi moliyalashtirishning barqaror emasligi, davriylikni ta'minlay olmaslik, tarqalish hududining torligi, adadning kamligi, kadrlar, jumladan, ixtisoslashgan jurnalistlar yetishmovchiligi kabi muammolar, ularni hal etish uchun raqamli transformatsiyani joriy qilish, nashrlarning kuchli brendini yaratish, boshqaruv konsepsiyasi va moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati to'g'risidagi xulosalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi OAVni qo'llab-quvvatlash, jurnalistlarga ijodiy sharoit yaratish, ixtisoslashgan nashrlar faoliyatini o'rganish va baholash jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 12-maydagi 01-03/223-son ma'lumotnomasi). Natijada uyushma muassisligidagi san'atga yo'naltirilgan davriy nashrlarni qo'llab-quvvatlash, ularga bo'lgan talabni yanada oshirish va barqaror chiqishini ta'minlashda estetik vazifalar va ko'ngilochar funksiyalarni uyg'unlashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy

nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Dissertatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e'lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda madaniy muhit va matbuot”** deb atalgan birinchi bobi uch fasldan tashkil topgan. *“San'at jurnalistikasi tushunchasi: tavsif va talqin”* deb nomlangan ilk faslida jahon media ilmida art-jurnalistika tushunchasining paydo bo'lishi va uning mazmun-mohiyati haqida yondashuvlar, tasnif va talqinlar aniqlanib, maqsad va vazifalari yoritilgan. Unga ko'ra, ayrim tadqiqotlarda “art” va “arts” tushunchalarining farqi o'rganilsa, ayrimlarida “madaniy jurnalistika” yoki “badiiy jurnalistika” deb yuritilganini kuzatish mumkin. San'at va adabiyot madaniyat sohasining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi, lekin madaniyat va san'atga bir tushuncha sifatida qarash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. San'at madaniyatning bir qismidir. Shu ma'noda art (san'at) jurnalistika madaniy jurnalistikaning turlaridan biri, to'g'rirog'i, ixtisoslashgan turidir. Musiqiy jurnalistika yoki musiqa tanqidchiligi, kino va teatr jurnalistikasi kabi alohida ixtisoslashuvlar esa san'at(lar) jurnalistikasi tushunchasi ostida birlashadi.

Madaniy jurnalistika ommaviy auditoriya uchun mo'ljallangan va u maxsus madaniy tayyorgarlikni talab qilmaydigan materiallarni tayyorlaydi. San'at jurnalistikasi esa ixtisoslashgan nashrlar uchun aniq (konkret) yo'nalishdagi materiallarni taqdim etadi.

“San'at” so'zi ko'plab (ispan, fransuz, ingliz, latish va hkz.) tillarda “art” shakliga ega va “art-jurnalistika” atamasi bugun ilm-fan nuqtayi nazaridan hammaga birdek tushunarli. Buni A. A. Musinova⁹, Chjan Yuanyuan¹⁰, T. S. Sergeeva¹¹, N. A. Tochitskaya¹², A. V. Maslennikov¹³, Jennifer Jang¹⁴,

⁹ Мусинова А. А. Арт-журналистика Казахстана. – Алматы: Казак университети, 2018. – 230 с.

¹⁰ Чжао Юаньюань. Арт журналистика Китая: генезис и тенденции развития (на материалах журнальной периодики): дисс. ... канд. фил. наук. – Санкт-Петербург, 2021. – 162 с.

¹¹ Сергеева Т. С. Арт-журналистика и современная Российская культура: ценностно-смысловые доминанты и проблема сохранения человека // Вестник Челябинского государственного университета. – 2013. – №22 (313). – С. 152–156.

¹² Точицкая Н. А. Арт-журналистика как понятие и вид творческой деятельности. – URL: <https://journals.bsui.by/index.php/journalism/article/view/2418/2016> (murojaat sanasi: 07.07.2024).

¹³ Масленников А. В. Арт-журналистика как объект современных медиаисследований. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/art-zhurnalistika-kak-obekt-sovremennyh-mediaissledovaniy> (murojaat sanasi: 07.07.2024).

O. Y. Proxorova¹⁵ kabi tadqiqotchilarning ishlari ham tasdiqlaydi. Mazkur tushuncha rus jurnalistikasida “культурная журналистика” (madaniy) yoki “художественная журналистика” (badiiy) tarzida beriladi, lekin bu ko‘zda tutilgan mazmun ko‘lamini kengaytirib yuboradi. Shu sababli o‘zbek tilida “art” so‘zining to‘liq mohiyatini yetkazuvchi “san‘at” leksemasidan ham parallel foydalanish mumkinligini istisno qilmagan holda uning keng miqyosdagi ilmiy ifodasi sifatida “art-jurnalistika” atamasini qo‘llashni maqsadga muvofiq deb topdik. Qolaversa, inglizcha “art” aynan “jismoniy mehnatning aksi o‘laroq, gumanitar fanlar sohasida qo‘llanishi” ishning mohiyatini aniqroq ifodalaydi.

Tadqiqotda art-jurnalistika jamiyatning madaniy hayotini badiiy ijod nuqtayi nazaridan tahlil qilishga qaratilgan media sohasi, degan fikrga amal qilindi. Bizningcha, mazkur yo‘nalish asosan keng auditoriya uchun mo‘ljallangani va birinchi navbatda ko‘ngilochar-ma‘rifiy xususiyatga ega ekani bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, art-jurnalistika tilining sodda(ommabop)ligi ko‘rilayotgan hodisadagi ilmiy-nazariy, tanqidiy va axboriy jihatlarini ham o‘zida qamrab oladi. Mazkur atama zamirida qadriyatlarni targ‘ib qilish, auditoriyaning estetik hamda iste‘molchilik didini shakllantirish yotadi.

Bobning “*Milliy matbuotda san‘at jurnalistikasining shakllanishi*” nomli ikkinchi faslida O‘zbekistonda san‘at jurnalistikasi ixtisosligining paydo bo‘lishi, rivojlanish omillari o‘rganildi, jadid matbuotidagi art-maqolalar tahlil qilinib, ularning mamlakatdagi madaniy yangilanish jarayonlariga ta‘siri, davr madaniy muhitining shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etildi.

Madaniyat mavzusi aynan jadid matbuotining shakllanishi bilan dolzarb masala sifatida ko‘tarila boshladi. Ular jamiyatning har qanday muammosi, zaif bo‘g‘ini, millat fojiasi zamirida ma‘rifatsizlik yotishini o‘rtaga qo‘yadi. Teatrning tashkil etilishi esa bu yo‘lda qilingan katta jur‘at, jasorat edi. Bilimsizlik, ma‘rifatsizlikni yo‘qotish, xalqning turmush tarzini o‘zidan olib, o‘ziga ko‘rsatish uchun teatr eng samarali vosita ekanini jadid namoyandalari tushunib yetadi. Ularning o‘zlari adib, dramaturg, rejissor, hatto aktyor sifatida sahnaga chiqishgani bizga ma‘lum. Natijada xalqning teatr san‘ati borasidagi mavjud fikrlari o‘zgarib, bahsli qarashlar, muhohasalar matbuotda aks eta boshlaydi. Gazeta sahifalarida uning tarafdorlari bilan birga teatrga qarshi fikrlar mualliflarining chiqishlari e‘lon qilinadi. Bu munozaralar milliy san‘at jurnalistikasining tug‘ilishidagi birinchi qadamlar edi.

Abdulla Avloniyning “Tiyotr xususida munozara” sarlavhali maqolasida xalq orasida kechayotgan fikrlar to‘qnashuvini tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan: “*Shul tiyotr xususida Toshkand odamlari yetmish firqaga bo‘lindilar. Ba‘zilari: “Tiyotr harom, tiyotrdan kelgan oqcha ham harom”, – derlar. Holbuki tiyotr harom ermas, bid‘at. Bid‘at bo‘lsa ham “bid‘ati hasana”. “Bid‘ati sayyia”lardan emas. Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo‘q qilmak uchun, o‘zini ahvolini*

¹⁴ Jang J. Why art journalism is important in connecting traditional art and entertainment with the media. – URL: <https://www.dpublication.com/conference-proceedings/index.php/worldcss/article/view/103/135> (murojaat sanasi: 07.07.2024).

¹⁵ Прохорова О. Ю. Арт-журналистика в печатной периодике России и Казахстана: дипломная работа. – Костанай, 2012. – URL: <https://studfile.net/preview/9301037/> (murojaat sanasi: 07.07.2024).

tuzatmak uchun boqadurg'on oyinasidir"¹⁶. Jadid matbuotida berilgan maqolalarning o'ziga xos jihatlaridan biri – oddiy xalq uchun tushunarli, sodda tilda, xalqona ta'sir va tasvir vositalaridan foydalana olganida.

Madaniyat va san'atga ixtisoslashgan nashrlar, jumladan, jurnallar faoliyati yo'lga qo'yilgunga qadar dastlab gazetalar bu mavzular uchun asosiy maydon bo'ldi. Milliy bosma matbuot faoliyati 1906-yildan ("Taraqqiy") yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, san'at mavzulariga bag'ishlangan maqolalar asosan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahna yuzini ko'rgach e'lon qilina boshladi.

Tadqiqot davomida dastlab matbuot asosiy e'tiborni teatr, ko'p o'tmay kinematografiya sohasiga qaratgani, keyinroq milliy xalq kuylari, tasviriy san'at namunalariga bag'ishlangan materiallar ko'payib, mavzular rang-barangligi ortgani aniqlandi. 1930-yilga qadar "Qizil O'zbekiston" sahifalarida san'atga oid 400 ga yaqin maqolalar¹⁷ e'lon qilindi. Sohaga doir mavzularni muntazam yoritib boruvchi ijodkorlar, bugungi tushuncha bilan ataganda art-jurnalistlar – "art-jadidchi"lar aynan shu davrda shakllandi.

Bobning "*Art-jurnalistikada ixtisoslashuv masalalari*" nomli faslida art-jurnalist faoliyat doirasi, unga qo'yiladigan kasbiy talablar, san'atshunos yoki san'at tanqidchisidan maqsad va vazifalariga ko'ra farqli tomonlariga aniqlik kiritildi. Butun dunyoda jurnalistikaning mazkur yo'nalish rivojlanib, uning media makonga ta'siri tobora ortib borayotgani asoslandi.

Bu yo'nalishda ijod qilayotgan jurnalist san'at va uning tarixini bilishi, chuqur his etishi, tushunishi, keng auditoriya savollariga javob bera olishi lozim. San'atshunoslardan farqli ravishda ular san'at qonuniyatlarini emas, balki uning jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganadi.

San'at tanqidchiligi jurnalistikaning bir yo'nalishi sifatida san'at hodisalariga ham estetik, ham ijtimoiy ahamiyati jihatidan baho beradi. Binobarin, musiqa, teatr, tasviriy san'at tanqidchiligining o'zi muayyan davr badiiy qarashlari, hukmron did hamda san'at tarixini o'zida aks ettiradi. Albatta, har qanday san'at – jurnal tanqidchiligining eng muhim "obyekt"i. U nafaqat real, balki ideal mazmunga ega bo'lib, publitsistdan san'atkor bilan birgalikda ijod qilish va dunyoni san'atkor kabi badiiy idrok etishni talab qiladi.

Shu o'rinda art-jurnalistika faoliyati qaysi vazifalarni qamrab olishiga aniqlik kiritiladi, ular: tahlil va tanqid qilish, intervyu olish, sharhlar va maqolalar tayyorlash, madaniy obyekt obrazini shakllantirish, PR va media faoliyati.

Shuningdek, san'at jurnalisti vazifalari yoritadigan san'at turi va o'zi ishlayotgan ommaviy axborot vositasining yo'nalishiga qarab farq qilishi mumkin. Quyida ayrim ixtisosliklarni keltirib o'tamiz: tasviriy san'at, kino va teatr, musiqa va konsertlar, zamonaviy madaniyat va yangi trendlar. Ayrim manbalarda adabiyot va kitoblarga bag'ishlangan mavzularni ham san'at jurnalistikasi yo'nalishiga kiritishadi. Ya'ni, adabiyot sohasidagi yangiliklar, badiiy asarlarga yozilgan taqriz va sharhlar, adabiyot vakillari bilan suhbatlar, yangi nashrlar taqdimotidan

¹⁶ Авлоний А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 221-б.

¹⁷ Qarag'ang: Milliy matbuot fihristi: "Иштирокиюн", "Қизил байроқ", "Туркистон" ва "Қизил Ўзбекистон" газеталарида эълон қилинган мақолалар изоҳли библиографияси / Тузувчи Ф. Нуриддинова; масъул муҳаррир Н. Каримов. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2020. – 698 б.

reportajlar ham art-jurnalistlar tomonidan tayyorlanadi. Chjao Yuanyuan ham o'z tadqiqotida¹⁸ Xitoyning san'atga ixtisoslashgan bosma nashrlarini tasniflashda adabiy jurnallarni ham art-jurnalistikaning bir tarmog'i sifatida o'rganadi. Biroq biz adabiyot yo'nalishini art-jurnalistika emas, balki yuqorida izohlaganimiz bir muncha kengroq soha – madaniy jurnalistika tarkibiga kiritishni asosli deb topdik.

Ikkinchi bob **“Zamonaviy matbuotda san'atga yo'naltirilgan nashrlar tasnifi va rivojlanish tendensiyalari”** deb atalgan. Uning *“Milliy matbuot tizimida san'at nashrlarining tipologik xususiyatlari”* deb nomlangan birinchi faslida bosma ommaviy axborot vositalari klassifikatsiyasi va unda art-nashrlarning o'rni, ixtisoslashgan bosma nashrlarni turlarga ajratishga oid fikr-mulohazalar, art-jurnallarning tipologik xususiyatlari o'rganildi.

San'atga ixtisoslashgan nashrlar (jurnallar) o'tgan asrning boshlaridayoq paydo bo'lganiga qaramay, ularni tasniflashda tadqiqotchilar o'rtasida bahsli qarashlar hali ham mavjud. Ixtisoslashgan jurnallarni tasniflash ko'p jihatdan subyektiv bo'lib, har kim u yoki bu jurnal turlarini tipologik sxemaga kiritish yoki kiritmaslikni o'zi tanlaydi. Jumladan, G. S. Melnik bosma ommaviy axborot vositalarining aniqlovchi xususiyatlari orasida auditoriya turini, shuningdek, voqelikning predmeti va aks ettiriladigan sohasini ajratib ko'rsatadi. U san'atga alohida soha sifatida e'tibor qaratadi¹⁹.

San'at nashrlarining tipologik xususiyatlariga doir yana bir salmoqli qarash H. Fosterga tegishli. U nashrlarini asosan ikki turga bo'ladi: tanqidiy/nazariy hamda vizual yo'naltirilgan, ommabop jurnallar. Fosterning tasnifi mazkur tipologiyalarning tadriji nafaqat san'at amaliyoti va nazariyasidagi yangilanishlarni, balki ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy va texnologik transformatsiyasi hamda auditoriya ehtiyojidadagi o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Masalan, raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi ko'plab an'anaviy bosma san'at jurnallarini multimedia va platformalararo formatlar bilan tajriba o'tkazishga, ularning tipologik xususiyatlarini yanada xilma-xillashtirishga olib keldi. Rus olimi L. Resnyanskayaning izlanishlari mohiyatan Fosterning yondashuviga yaqin ekanini kuzatish mumkin. U bosma nashrlarni universal va ixtisoslashgan nashrlarga bo'lish eng keng tarqalgan va asosiy tur ekanini ta'kidlaydi.

Universal nashrlar *“hamma narsa hamma uchun”* modelini o'zida mujassamlashtiradi. Bu ommaviy axborot vositalarining barcha asosiy funksiyalarini amalga oshiradigan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladigan nashrlardir. Ixtisoslashgan nashrlar quyidagi modellarga ega bo'lishi mumkin:

- “hamma narsa haqida hamma uchun emas” (tematik);
- “hamma narsa haqida emas, hamma uchun emas” (auditoriya va mavzularni cheklash – sohaga doir, ayollar, erkaklar, bolalar)²⁰. So'nggi modelga san'atga oid

¹⁸ Чжао Юаньюань. Арт журналистика Китая: генезис и тенденции развития (на материалах журнальной периодики): дисс. ... канд. фил. наук. – Санкт-Петербург, 2021. – 162 с.

¹⁹ Мельник Г. С. Политическая пресса в системе российской печати // Современная периодическая печать в контексте коммуникативных процессов: Материалы науч.-практ. семинара. (Санкт-Петербург; С.-Петерб. гос. ун-т. 12 марта 1998 г.) / Отв. ред. Б. Я. Мисонжников. – СПб., 1999. С. 17–18.

²⁰ Реснянская Л. Общероссийские газетные издания // Вестник МГУ. Сер. Журналистика. – 2000. – № 4. – С. 3–14.

jurnallarni ham kiritish mumkin. Mazkur fikr Qozog‘istonda san’atga ixtisoslashgan nashrlarini tadqiq etgan olim A. Musinova²¹ ishlarida davom ettirilsa, rossiyalik tadqiqotchi Y. V. Gorlova²² Italiya tasviriy san’at nashrlarining tipologik xususiyatlarini o‘rganish doirasida biz uchun mutlaqo yangilik bo‘lgan xususiyatlarni ham qayd etadi. Jumladan, maqsadiga ko‘ra jurnallarni integrativ, hududiy san’atni targ‘ib qiluvchi, institutsional, diniy, bolalar uchun mo‘ljallangan jurnallarga bo‘ladi. Bu esa art-mediadagi xilma-xillik uning tipologik xususiyatlarini yana keng ko‘lamda tasniflash uchun obyekt bo‘la olishini ko‘rsatadi. Aksincha, obyektning yetarli emasligi, o‘zbek davriy nashrlari misolida, san’atga ixtisoslashgan jurnallar (hatto, gazetalar) tasnifini keng ko‘lamda o‘rganishga to‘sqinlik qiladi. Shunga qaramay mavjud nazariy yondashuvlar ixtisoslashgan nashrlarni turli tipologik guruhlarda o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqotda art-nashrlar maqsad va vazifasi, mazmuni, auditoriyasi, davriyligi, tarqalish hududi, dizayn va vizual imkoniyatlari, mulkchilik shakli, nashr formatiga ko‘ra tasniflandi. Tasnif dissertatsiyada batafsil yoritilgan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli “*San’atga ixtisoslashgan jurnallarning rivojlanish muammolari*” deb ataladi. Bunda san’atga ixtisoslashgan jurnallarning faoliyati, rivojlanish va inqiroz sabablari tahlil qilingan.

Mamlakatimizda san’atga ixtisoslashgan jurnallarning paydo bo‘lishini 1956-1967-yillar mobaynida ko‘plab jurnallarning qayta tashkil etilishi bilan bog‘lash mumkin. 1965-yildan O‘zbekiston Respublikasi davlat kinokompaniyasi va kinematografchilar uyushmasi muassisligida chiqa boshlagan “Kino” jurnali qariyb qirq yil davomida sohadagi yangiliklar, jarayonlar, muammolarni yoritdi. 90-yillar boshida ham 150 ming nusxadan ortiq adadda chop etilgan jurnal 2000-yilda iqtisodiy tanglik sabab yopildi.

2008-yil “Cinema Market” MChJ muassisligida yana bir kino sohasiga ixtisoslashgan “Cinema magazine” nomli jurnal o‘z faoliyatini boshladi. Xususiy jurnal faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi ham kino san’ati ixlosmandlari, ham matbuot sohasi uchun madaniy hodisa edi. Jurnal zamonaviy format, yangicha dizayn, yaltiroq (glyanets) sahifalarda, mumtoz filmlar diski ilova qilingan holda 1000 nusxada chop etilgan. Garchand jurnal oylik nashr sifatida qayd etilgan bo‘lsa-da, davriylikni ta‘minlashda bir qator muammolar yuzaga keldi. Muassis jurnalning respublika bo‘ylab tarqalishini ko‘zlagan, ammo amalda poytaxt hududi bilan cheklanib qolgan. Natijada bu nashr faoliyati ham uzoq davom etmadi. 2010-yili jurnal chiqishdan to‘xtadi.

2018-yili navbatdagi urinish – “O‘zbekkino” Milliy agentligi muassisligida “Kino san’ati” (nishona son) jurnali ish boshladi. Jurnal xususiy bo‘lmasa-da, o‘zining noan’anaviy formati, toshbosar materiallari, sifatli dizayni bilan mutaxassislar e’tibori va e’tirofini qozondi. 3000 adaddagi badiiy-publitsistik, ilmiy-ommabop jurnalning faoliyati uchta son bilan tugatildi.

²¹ Муסיнова А. А. Арт журналистика Казахстана: учебное пособие. – Алматы: Қазақ университеті, 2018. – 230 с.

²² Горлова Е. Типологические особенности итальянских журналов об изобразительном искусстве. – URL: <http://www.mediascope.ru/2451> (murojaat sanasi: 22.02.2025).

Kino sohasidagi nashrlar faoliyatida uzilishlar, nomuntazamlklar kuzatilayotgan bir paytda san'atning boshqa turlari: tasviriy san'at sohasi (rassomlik, arxitektura, haykaltaroshlik yo'nalishlari)ni yoritib kelayotgan jurnallar faoliyatida barqarorlikni qayd etish mumkin. 1942-yildan buyon nashr etiluvchi "San'at" jurnali, san'atga to'la ixtisoslashgan bo'lmasa-da, mazkur mavzular uchun doimiy ruknlar ajratgan "Moziydan sado", "Ma'naviy hayot" kabi jurnallar shular jumlasidan. Shuningdek, zamonaviy jurnallar orasida "Elle Uzbekistan", "The Mag", "The developer", "Vizit to Uzbekistan" kabi "yaltiroq" (glyanets) jurnallar kontentining katta qismini ham san'atga aloqador, aniqrog'i shou-biznes vakillari bilan bog'liq materiallar egallaydi. Mazkur jurnallarda professional tahlillar yo'q, keng jamoatchilikning san'at haqidagi bilimlarini boyitish, san'atni ommalashtirish ko'zlanmagan.


Tadqiqot davomida art-nashrlar rivojlanmaganligining quyidagi sabablari aniqlandi:

– aksariyat nashrlarning faoliyati noshirlik tajribasiga ega bo'lmagan ijodkor ziyolilar tashabbusi bilan amalga oshirilgan;

– ijodkorlarning tashabbusi davlat tomonidan ham, xususiy sektorlar tomonidan ham moliyaviy qo'llab-quvvatlanmadi. Bunday yo'nalishdagi OAV esa reklama beruvchilarni qiziqtirishi qiyin.

Yana bir omil – so'nggi o'n yil ichida o'quvchi internet sahifalaridan o'zi xohlagan kontentni izlashga, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinayotgan xabar va yangiliklar bilan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga o'rgandi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham buni tasdiqlaydi (1-rasm).

Санъат мавзусига доир янгиликларни ОАВ нинг қайси тури орқали оласиз?
338 ответов



1-rasm. So'rovnomaning san'atga oid yangiliklar manbalarini ifodalovchi diagrammasi.

Gazeta-jurnallar xabardorlik va tezkorlik funksiyasini boy berganini inkor etmagan holda ulardagi tahliliy, tanqidiy materiallar, sohaning dolzarb masalalariga qaratilgan muammoli mavzularni yoritishini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Bu masalada jurnallarning o'zni alohida ekanligini ta'kidlash lozim.

"San'atga ixtisoslashgan jurnallarda mavzular ko'lamining o'ziga xosligi" deb nomlangan uchinchi faslda san'at nashrlarining ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi o'zni, siyosiy targ'ibotdagi ishtiroki, mafkuraning mavzularga ta'siri bilan bog'liq jihatlar ochib berilgan.

Madaniyat va san'at sohasiga ixtisoslashgan media vositalarining ustunligi – axborot manbasi sifatida ularga ijtimoiy ishonchning yuqori ekanida. Negaki aynan

san'at asarlari ijtimoiy fikrni shakllantirish yoki o'zgartirishda samarali "qurol", vosita sifatida foydalanib kelingan. Aksariyat san'at asarlari (kino, musiqa, haykaltaroshlik, rassomlik) siyosiy targ'ibotga xizmat qiladi. Ixtisoslashgan davriy nashrlar faoliyatini tahlil qilish jarayonida e'lon qilingan materiallarda mohiyatan ijtimoiy shart-sharoit, siyosiy tuzumdan kelib chiqilgan yondashuv aniqlandi. Aksariyat holatlarda mavzu tanlovi ham aynan hukmron tuzum kayfiyatini ifodalaydi. "Mavzu – bevosita jamiyatning dolzarb ijtimoiy buyurtmasini publitsist ifodasi orqali matbuotdagi chiqishi"²³, degan ta'rif ham bu fikrni tasdiqlaydi.

O'zbekistonda san'at va madaniyat mavzulari dastlab asosan markazdan kelgan yo'riqnomalar va siyosiy qarashlar ta'sirida yoritilgan. Bu davrda san'at jurnalistikasi Sovet Ittifoqining markazlashgan rasmiy tizimida shakllanib, ideologiyaga asoslandi. 1991-yildan 2000-yillar oralig'ida esa san'at jurnalistikasida mavzular ko'lami bevosita yosh davlatning mustaqilligi o'rnatilishi bilan bog'liq bo'ldi. Shuning uchun ham davriy nashrlarda milliy madaniyatni tiklash, saqlash va rivojlantirish mavzusiga keng o'rin berilgan.

San'atga ixtisoslashgan nashrlarining mavzu qamrovi va unga ta'sir qiluvchi omillar alohida nashrlar kesimida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan "San'at" jurnalida mavzular qamrovining kengayishi nashrning nomi o'zgarib ("Nafosat"), madaniyat muammolarini yorita boshlagani bilan aloqador. Bu davrda bozor iqtisodi bilan bog'liq masalalar kun tartibida turgani sababli jurnalda "Bozor iqtisodiyoti va madaniyat" rukni ostida turkum maqolalar berib borildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatning Turkiya bilan aloqalari mustahkamlanib, qardoshlik rishtalari haqidagi materiallar davriy nashrlarda yaqqol ko'zga tashlandi. Hatto jurnal 1992-yil 3-sonida har qanday mavzudagi materiallar, san'at faoliyati, hatto reklama xarakteridagi e'lonlar ham Turkiya bilan bog'liq tarzda tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi (birinchi) Prezidentining O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida 1980-sonli farmoni ijrosi doirada tashkil qilingan "Teatr" – oylik adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali bevosita Milliy teatr san'atiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, ommaviy tomosha san'atidagi yutuqlarimizni keng targ'ib qilish maqsadiga xizmat qiladi. Unda soha vakillarining yutuqlari, taqdirlangan san'atkorlar haqida portret ocherklar, teatr darg'alari xotirasiga bag'ishlangan esselar, davra suhbatlari, intervyular, mavsumda namoyishi kutilayotgan sahna asarlarining anonslari joy oldi. Shuningdek, viloyat teatrlarining faoliyatlari, ularda qo'yilayotgan spektakllar tahlili mutaxassislar tomonidan yoritildi. 2020-yillarga kelib, bosma matbuot inqirozi bilan bog'liq masalalar, moliyaviy manfaatlar ta'siridagi "Teatr"da belgilangan adabiy-badiiy, axborot-reklama yo'nalishi aytarli sezilmaydi. Nashr to'liq ilmiy materiallarga, unda ko'tarilayotgan mavzular esa ilmiy masalalarga qaratiladi. Mualliflar jamoasi endilikda art-jurnalistlar emas, balki O'zDSMI tadqiqotchilari, o'qituvchilari, san'atshunoslik fanlari nomzodlari, doktorlaridan tarkib topadi. Hozirda jurnalning mavzular ko'lami: muassis tashkilot tomonidan o'tkazilgan tadbirlar hisoboti, teatr

²³ Горохов В. М. Закономерности публицистического творчества. – Москва: Мысль, 1975. – С. 63.

san'atining funksional xususiyatlari, janrlar masalasi, sohaning tadrijiy omillari kabi jonsiz materiallardan iborat bo'lib qolgan.

